

**O‘ZBEKISTONNING “YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH  
STRATEGIYASI; MAVJUD MUAMMO VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR.**

**Matazimova Shahnoza.**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “solliqlar va budjet hisobi” fakulteti “solliqlar va soliqqa tortish” yo’nalishi 2-kurs ST-57/24=guruh talabasi*

**Annotatsiya;** *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tish yo‘lida amalga oshirilayotgan ishlari, yani, 2030-yilgacha amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan strategiya hamda yashil iqtisodiyotga o‘tish yo‘lidagi mavjud ba’zi muammolar ko‘rib chiqiladi va ularga yechimlar topiladi. Undan tashqari iqtisodiyotni bunday turiga o‘tishda kelajakda mavjud bo‘ladigan ko‘plab imkoniyatlar yoritib beriladi.*

**Kalit so‘z:** *Yashil iqtisodiyot, qayta ishlanuvchi energiya manbalari, elektr energiyasi, resurs, yalpi ichki mahsulot, sanoat korxonalari, texnologiyalar.*

O‘zbekiston Respublikasi uchun “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo shunga qaramay, davlatimizda ba’zi bir muammo va to‘siqlar mavjud.

O‘zbekiston doimiy ravishda ko‘p energiya va suv resurslaridan iqtisodiy maqsadda foydalanishi bilan boshqa mamlakatlardan ajrab turadi. Yalpi ichki mahsulot uchun sarflanuvchi energiya sarfi Yevropa ittifoqi va Markaziy Osiyo davlatlari orasida anchagina yuqori hisoblanadi. Energiya islab chiqarishda ko‘mirdan ko‘p miqdorda foydalaniladi. Bu esa, davlatimizning ko‘mirga bo‘lgan qaramligini ifodalaydi. Suv resurslaridan aholining ko‘p qismi noto‘g‘ri foydalanib kelmoqda. Natijada esa suv resurslarining keskin kamayishi kundan-kunga ko‘payib bormoqda. Ayniqsa, Markaziy Osiyoda eng katta muammoga aylanib borayotgan Orol dehgizining qurishi ham ko‘p muammolarni keltirib chiqaradi. Masalan, mamlakat iqtisodiyotiga hamda aholi salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

“Yashil iqtisodiyot”ga o‘tishda yangi texnologiyalar va katta miqdordagi sarmoyalar talab qilinadi. Ekologik toza va energiya tejovchi texnologiyalar boshqa davlatlardan olib kelinadi. Ularni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish ham anchagina mashaqqat talab qiladi. Elektr energiyasi va gaz iste’moli uchun aholidan olinadigan narx bozor narxidan past bo‘lgani tufayli, ushbu mahsulotlardan samarasiz foydalanish yuzaga kelgan. Buning natijasida “Yashil “ energiya manbalariga sarmoya qilishning iqtisodiy samaradorligi kamayadi.

Aholining ko‘p vakillari yashil iqtisodiyotga o‘tish haqida tushunchaga ega emaslar. Ya’ni resurslarni tejashni, ulardan oqilona foydalanishni bilishmaydi. Uzluksiz resurslardan

foydalanishlari ham qayta tiklanmaydigan resurslarni tugashiga olib keladi. Qayta ishlanuvchi mahsulotlarni qayta ishlashga emas, balki, chiqindilarga tashlashadi.

“Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish uchun davlatimiz tomonidan katta miqdorda sarmoyalarning ajratilishi natijasida bozorlarda narxlar oshirilmoqda, aholidan olinadigan soliqlarning hamda turli xil jarimalarning miqdori oshishi aholining iqtisodiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Iqtisodiyotning bunday turiga o'tishda ma'lum bir qoidalarining yo'qligi ham muammo hisoblanadi. Ya'ni “Yashil iqtisodiyot”ga o'tgandan keyin ham ungacha ham qoidalar asosida harakat qilish zarurdir.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha muammolarni hal qilish mumkin. Bularni hal qilish uchun birinchi o'rinda davlat hamda insonlar birgalikda ishlashlari lozim. Qayta tiklanadigan energiya manbalari ishlab chiqargan elektr energiyasini to'liq o'zlashtiradigan elektr uzatuvchi tarmoqlarning modernizatsiya qilinishi zarur. Yashil investitsiyalarni rag'batlantirish, ekologik meyorlarni xalqaro darajaga olib chiqish, shuningdek, davlat tomonidan “yashil” loyihalarga mablag'lar ajratish uchun xalqaro standartlarga to'g'ri keladigan “yashil” obligatsiyalar chiqarish, ekologik toza texnologiya va qayta tiklanuvchi elektr manbalaridan foydalanayotgan korxonalarga ma'lum soliqlarni, bojxona bojlarini kamaytirish orqali ularni rag'batlantirish hamda boshqalarni ham shunday qilishga undash.

Suv resurslaridan oqilona foydalanishni targ'ib qilish, qishloq xo'jaligida tomchilab sug'orishni yo'lga qo'yish hamda uni keng ko'lamda amalga oshirish.

Chiqindilarni qayta ishlab chiqarishni takomillashtirish. Atrof muhitni tozalash, yashil maydonlarni kengaytirish, viloyatlarda, shaharlarda yashil makonlarni kengaytirishga qaratilgan tadbirlar o'tkazish. Cho'lli hududlarga ham daraxtlat ekish, o'rmonlarni kengaytirish. Ayniqsa, Orol bo'yi hududlarida bunday ishlarni o'tkazish uchun aholini safarbar etgan xolatda, Orol bo'yi atrofida sodir biladigan chang va tuz bo'ronlarini oldini oladigan daraxtlarni ekish.

Aholini “Yashil iqtisodiyot” bilan tanishtirish, uning foydali jihatlari va hozirgi xolatda resurslar yo'qolib ketishi haqida habardor qilish hamda birgalikda ishlashga taklif qilish. Maktablarda, universitetlarda bu yonalishni rivojlantirishga qaratilgan turi tadbirlar o'tkazish. Ommaviy axborot vositalarida qilinayotgan ishlarni yoritib boorish orqali aholinong davlatga bo'lgan ishonchini yanada oshirish hamda aholini ko'proq jalb qilish.

Chet el mamlakatlarining hamda rivojlangan davlatlarning “Yashil iqtisodiyot”ga o'tishdagi chora tadbirlarini o'rganib o'zimizda qo'llash ham iqtisodiyotning bunday turiga o'tishimizdagi qiyinchiliklarga barham beradi.

Eng muhim omil hisoblanuvchi qonunlarni joriy qilish. Yani, qat'iy qonun va qoidalar joriy etish orqali yangi g'iyalarni ilgari surish ham kutilayotgan muammolarni bartaraf etadi.

Davlatimizning “Yashil iqtisodiyot”ga o’tish bo’yicha belgilangan strategiyasi mamlakat uchun juda katta istiqbolli ahamiyatga ega bo’lgan imkoniyatlar yaratadi. O’zbekiston quyoshli davlat bo’lgani sababli, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirib, quyosh elektr stansiyalarini kengaytirish orqali energetik mustaqillikka erishish, aholini doimiy energiya bilan ta’minlab, qo’shni davlatlarga ham sotishi va yaxshigina moliyaviy foyda ko’rishi mumkin. Sanoat, qishloq xo’jaligi sohalarida energiya tejaydigan texnologiyalardan foydalanib, ishlab chiqarishdagi harajatlarni kamaytirish hamda raqobatbardoshlikni yanada oshirish mumkin bo’ladi.

O’zbekiston aholisi dehqonchilik ishlarida yaxshi bo’lgani tufayli “Yashil iqtisodiyot”ga o’tishda yerlardan foydalanish ko’payadi va ko’plab insonlarni ish bilan taminlaydi

Iqlim o’zgarishi hamda ekologik muammolarni bartaraf etishda ham muhim o’rin tutadi.

| T/R | Korxona nomi                                | Faoliyat turi<br>(QTE manbasi)               | Loyiha joylashuvi           | Izoh/loyihaning quvvati                                                         |
|-----|---------------------------------------------|----------------------------------------------|-----------------------------|---------------------------------------------------------------------------------|
| 1   | Masdar(Abu Dabi Future Energy Company PJSC) | Quyosh(PV)<br>Shamol                         | Navoiy,Samarqand,<br>Jizzax | Yirik quyosh va shamol elektr stansiyalari loyihalari                           |
| 2   | ACWA Power                                  | Shamol<br>Quyosh(PV)<br>Yashil vodorod       | Buxoro,Navoiy,<br>Toshkent  | Yirik shamol elektr stansiyalari va yashil vodorod loyihalari                   |
| 3   | Total Eren SA                               | Quyosh(PV)                                   | Samarqand                   | Quyosh elektr stansiyalari loyihalari                                           |
| 4   | JSC<br>Uzbekgidroenergo                     | Gidroenergetika(GES)                         | Butun respublika bo’ylab    | Mavjud GESlarni boshqaradi va yangi gidroelektrstansiyalarini quradi            |
| 5   | Volitalia SA                                | Qayta tiklanuvchi energiya<br>(aniqlanmagan) | Aniqlanmagan                | Xalqaro QTE bozori ishtirokchisi<br>O’zbekistonda ham loyihalarni ko’zda tutadi |

|   |               |            |              |                                                                                                                |
|---|---------------|------------|--------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|   |               |            |              |                                                                                                                |
| 6 | Sky Power Ltd | Quyosh(PV) | Aniqlanmagan | Global quyosh energiyasi bo'yicha ishtirokchi O'zbekistonda yirik loyihalarda ishtirok etishi rejalashtirilgan |
| 7 | Phanes group  | Quyosh(PV) | Navoiy       | Yirik quyosh elektro stansiyasi loyihasi                                                                       |

**O'zbekistondagi qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanuvchi va qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini amalga oshiruvchi yirik kompaniyalar.**

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, O'zbekistondagi qayta tiklanuvchi energiya loyihalari Arab Amirliklari, Fransiya, Saudiya Arabistoni kabi xalqaro kompaniyalar tomonidan amalga oshirilmoqda bu esa shuni ko'rsatadiki, Davlatimiz qayta tiklanuvchi energiya sohasini rivojlantirish maqsadida xalqaro investitsiyalardan faol foydalanmoqda.

O'zbekiston iqlimi hamda ayrim hududlarni shamol salohiyati tufayli, asosiy qayta tiklanuvchi energiyalar manbalari sifatida quyosh va shanol energiyalaridan foydalaniladi. JSC Uzbekgidroenergo kompaniyasi davlatga qarashli ekani va eng katta qayta tiklanuvchi energiya manbai bo'lgan gidroenergetika sohasida faoliyat yuritib, ushbu sohani rivojlanayotgani ham etiborli holat hisoblanadi. Loyihadan amalga oshadigan katta miqyosdagi quvvat (100 MVTdan 500 MVTgacha va undan yuqori) mamlakatdagi quvvatga bo'lgan ehtiyojni qondirishga sezilarli darajada yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Kun.uz
2. Daryo.uz
3. [www.yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz](http://www.yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz)
4. Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyalari ma'lumotlari.